

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasining 2025 yil 07-noyabr

№ 6 - sonli majlis

BAYONNOMASIDAN KO'CHIRMA

Qatnashdilar: majlis raisi “Pedagogika va psixologiya” kafedra mudiri

D. Boboqulova

O'qituvchilar: T. Yo'ldoshev, N. Donayeva, P. Saidova va boshqalar.

Kun tartibi:

Professor-o'qituvchilar tomonidan ochiq darslarni o'tkazish va o'zaro darslarga kirishning tashkil etilishi to'g'risida

U. Shomurotovning ochiq darsi muhokamasi mas'ul:

kafedra mudiri D. Boboqulova

Ochiq darsning mohiyati haqida bahs – munozara: U. Shomurotovning axboroti **“Umumiy psixologiya”** fanidan **“Maqsad va motivlarning o'zaro bog'liqligi”** mavzusidagi ochiq darsining muhokamasi.

Kafedra yig'ilish raisi so'z D. Boboqulovaga

Hurmatli professor-o'qituvchilar U. Shomurotovning ochiq darsi **“Umumiy psixologiya”** fanidan **“Maqsad va motivlarning o'zaro bog'liqligi”** mavzusida 07.11 2025 yil 307- xona 2-juftlikda **“Pedagogika”** fakultetining 1-bosqich Psixologiya ta'lim yo'nalishi 11PS-2025-guruh talabalari bilan o'tkazildi. Talabalar tomonidan Maqsad va uning inson hayotidagi o'rni, maqsadlarning turlari va ularni amalga oshirishning usullari, maqsadning motiv bilan aloqadorli, motivlarning paydo bo'lishi, motivlarning turlari, maqsad va motivlarni o'rgangan jahon va o'zbek psixologlari haqida to'xtalib o'tildi..

O'qituvchi ma'ruza jarayonini tashkil etishda o'quv rejalari va dasturlariga amal qilgan holda tashkil qildi. Darsni o'qituvchi ilg'or pedagogik texnologiya qiziqarli faktlar asosida tashkil etildi. Talabalar tomonidan ma'ruzaning rejalari aniq va to'liq berilgan. Dars davomida o'qituvchi tomonidan talabalarga tezkor savollar yordamida **“Toifalash jadvali”** va **“BBX”** metodini qo'llagan holda o'tilgan mavzuni

mustahkamlab oldi. Talabalarga maqsad va motivlarning rivojlantiruvchi metodikalar va usullar bilan tanishtirib o'tdi. Dars jarayonida talabalarga "Aqliy hujum" metodi yordamida savollar berildi, talabalar savollarga javob berishdi.

Katta o'qituvchi T. Yuldoshev – "Umumiy psixologiya" fanining namunaviy dasturi, ishchi dasturi, kalendar tematik ish rejasi, fanning texnologik xaritasi, ma'ruza matnlari mavjud. Mavzu juda qiziqarli yoritib berildi. Darsda ko'rgazmali qurollardan foydalanildi. Talabalar savollarga erkin javob berdilar. O'qituvchi ma'ruza darsini tashkil etish jarayonida pedagogik texnologiyalardan to'g'ri foydalangan holda talabalarni mashg'ulotga jalb qila oldi.

O'qituvchi N. Shaymardonova– O'qituvchi darsni to'g'ri tashkil qilgan Talabalar tomonidan tayyorlab kelgan materiallarni bilan ishlash jarayoniga alohida e'tibor qaratilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanganligi va taqdimotni talab darajasida tayyorlanganligi talabalarni darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirdi. Ochiq dars mavzusi aniq, ko'rgazmali va sodda yoritilgan. Talabaning tayyorlab kelgan materiallari, faolliklari seminar darsini qiziqarli bo'lishini ta'minladi, Talabalarni bilim olishdagi mustaqilligini oshirish, mustaqil faoliyatini tashkil etish yo'li bilan ular nutqining to'g'riligi va sofligiga mas'uliyat bilan qarash lozim, deb o'ylayman.

Kamchiliklari:

1. Ma'ruzani yanada qiziqarli o'tkazish uchun ko'proq ko'rgazmali qurollardan va tarqatmalardan yanada kengroq foydalanish va faol bo'lmagan talabalarni iloji boricha dars mashg'ulotiga jalb qilinishi kerak edi.

Kafedra yig'ilishi qaror qildi:

1. U. Shomurotovning ochiq darsi zamonaviy talablar darajasida o'tganligi, unda hozirgi ta'lim metodlaridan, axborot texnologiyalardan unumli foydalanishning muhim jihatlari qamrab olingani qayd qilinsin.
2. U. Shomurotovning olib borgan ochiq darsning dolzarbligi, ilmiy-amaliy jihatdan mukammalligi hisobga olinib, ijobiy boholansin.

Kafedra mudiri:



D. Boboqulova

Kotiba:



M. Kuchkinova



Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

“Pedagogika va psixologiya” kafedrasining
o’qituvchisi U. M. Shomurotovning 60310300 -
Psixologiya ta’lim yo’nalishi 1-kurs 11PS-2025-
guruhda Umumiy psixologiya fanidan **“Maqsad va
motivlarning o’zaro bog’liqligi”** mavzusida
tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq dars ishlanmasiga

T A Q R I Z

60310300 - Psixologiya ta’lim yo’nalishida ta’lim olayotgan talabalarga Inson hulq-atvorida funksional jihatdan bog’liq bo’lgan qo’zg’atuvchi va boshqaruvchi tomonlar mavjud. Psixologiyada inson hulq-atvoridagi qo’zg’atuvchi holatlarni tasvirlash va tushuntirish uchun qo’llaniladigan tushunchalar orasida motivatsiya va motiv tushunchalari eng umumiy va asosiy bo’lib hisoblanadi.

“Motivatsiya” atamasi “motiv” atamasiga qaraganda kengroq tushunchaga ega. “Motivatsiya” so’zi hozirgi zamon psixologiyasida hulq-atvorni determinatsiyalovchi omillardir. Bunga, xususan, ehtiyojlar, motivlar, maqsadlar, intilishlar va boshqa ko’pchilik) tizimini belgilovchi va hulq-atvor faolligini ma’lum darajada tutib turuvchi, rag’batlantiruvchi jarayon xususiyati sifatida ikkilangan ma’noda qo’llaniladi. Biz motivatsiya tushunchasini birinchi ma’noda qo’llaymiz. Shunday qilib, *motivatsiyani* inson hulq-atvori, uning kelib chiqishi, yo’nalishi va faolligini tushuntirib beruvchi psixologik xususiyatga ega bo’lgan sabablar yig’indisi sifatida belgilash mumkin.

Ehtiyojdan keyingi motivatsion ahamiyatga ega bo’lgan tushuncha – bu *maqsad*. Maqsad deb, faoliyat bilan bog’liq bo’lgan, dolzarb ehtiyoji qondiruvchi bevosita anglanuvchi natijaga aytiladi. Psixologik jihatdan maqsad ongning motivatsiyali qo’zg’atuvchi mazmuni, u inson tomonidan faoliyatining bevosita va yaqin kutilayotgan natijasi sifatida idrok qilinadi.

Ko’rib chiqilgan motivatsiyali hosilalardan dispozitsiyalar (motivlar), ehtiyojlar va maqsadlar inson motivatsion sohasining asosiy tashkil etuvchilari bo’lib hisoblanadi.

Shaxsning motivatsion sohasini rivojlanganlik nuqtai nazaridan kenglik, egiluvchanlik va ierarxialashtirish ko'rsatkichlari bo'yicha baholash mumkin. Motivatsion sohaning *kengligi* deyilganda, darajalarning har birida keltirilgan dispozitsiyalar, ehtiyoj va maqsadlar kabi motivatsion omillarning sifat jihatidan turli-tumanligi tushuniladi. Odamda turli xil motivlar, ehtiyoj va maqsadlar qanchalik ko'p bo'lsa, uning motivatsion sohasi ham shunchalik rivojlangan hisoblanadi.

Shu dolzarb masalalarni ko'zlab tayyorlangan mazkur 2 (ikki) soatlik ochiq darsi mavzusi DTS talablaridan kelib chiqib, o'quv rejasi va dasturi asosida tuzilgan.

U.M.Shomurotov tomonidan **“Maqsad va motivlarning o'zaro bog'liqligi”** mavzusida tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq darsi mavzusining maqsadi ta'lim sifatini boshqarish orqali darsda talabalarning yangi tushuncha va ko'nikmalarini, fikrlash doirasini boyitish maqsadida mavzuga doir ma'lumotlar yaxshi yoritilgan, taqdimot (slyd)da rangli rasmlar va ma'ruza asosida savollar keltirilgan.

O'qituvchi U.M.Shomurotov tomonidan tayyorlangan 2 (ikki) soatlik ochiq darsi mavzusi oliy ta'lim sohasidagi islohatlar va bugungi kun talablarini hisobga olib tuzilgan. Ochiq darsi mavzusini amalda foydalanishni tavsiya etaman.

Taqrizchi: “Pedagogika va
psixologiya” kafedrasi mudiri



D.M.Boboqulova

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

“PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA”

KAFEDRASI O‘QITUVCHISI

SHOMUROTOV ULUGBEK MELIKBOBOYEVICHNING

OCHIQ DARS MASHG‘ULOTI



Fan: Umumiy psixologiya

Mavzu: Maqsad va motivlarning o‘ziga xosligi



Mashg‘ulot shakli: Ma’ruza

Yo‘nalish: 11PS-2025

Sana: 07.11.2025 yil


Xona: 307

Vaqti: 10-00




*O'qituvchilar eshikni ochishi
mumkin, lekin siz o'zingiz
kiritishingiz kerak*

Xitoy xalq maqollari



MOTIV



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

DENOV TADBIRKORLIK VA
PEDAGOGIKA INSTITUTI

PEDAGOGIKA FAKULTETI

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA
KAFFEDRASI

o'qituvchi Shomurotov Ulugbek

Melikboboyevichning

Psixologiya ta'lim yo'nalishi

I-kurs talabalari uchun Umumiy
psixologiya fanidan ochiq darsiga

TAKLIFNOMA

Sartoriyo -2025

Hurmatli

Sizni 2025 yil 07-noyabr kuni soat

10:00 da

Denov tadbirkorlik va
pedagogika institute Pedagogika
fakulteti binosidagi 307- xonada
bo'lib o'tadigan Psixologiya ta'lim
yo'nalish 1-kurs 11PS 2025-guruh
talabalari uchun "Umumiy
psixologiya" fanidan "Maqsad va
motivlarning o'ziga xosligi"
mavzusidagi Pedagogika va
psixologiya kafedra o'qituvchisi
U.M.Shomurotovning

OCHIQ DARSIGA

taklif etamiz.

Mavzu rejası:

1. Maqsadning o'ziga xosligi
2. Motivning o'ziga xosligi
3. Maqsad va motivning o'zaro bog'liqligi

Maqsadning o'ziga xosligi

— bu inson faoliyatini
yo'naltiruvchi ongli
maqsadlarning shaxsga
xos, individual, ijtimoiy va
psixologik jihatlar asosida
shakllanishini bildiradi.

Motivning o'ziga xosligi — bu insonni faoliyatga undovchi ichki turtkilarning (sabablarning) shaxsiy, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarga ko'ra farqlanishini ifodalaydi. Har bir insonning motivi o'ziga xos bo'lib, u uning ehtiyojlari, qadriyatlari, hissiy holati va hayot tajribasiga bog'liq.